

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar muzeyiga ekskursiya

1992 yil 14 yanvar kuni mustaqil davlatimiz hududidagi barcha harbiy qism va bo'linmalarni O'zbekiston tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi, milliy armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqilganligi munisabati bilan, talaba-yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarixi va hozirgi yutuqlari bilan tanishtirish maqsadida, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Davlat muzeyiga ekskursiya tashkil etildi.

Ekskursiya davomida talabalar nafaqat O'zbekistonda tashkil topgan Qurolli kuchlari tarixini o'rganishga, balki muzeyning boy va keng ko'lamga ega bo'lgan Markaziy Osiyo va O'zbekiston xalqining rivojlangan harbiy san'ati tarixi ekspozitsiyalari bilan ham tanishishga muyassar bo'ldilar. Universitet talabalari muzeydagi eksponatlar bilan tanishar ekanlar, o'tmishga xayolan sayohat qilib, qadim zamonlarda yashab o'tgan insonlar, ularning turmush tarzi, mudofaa va qurolsozlikning rivojlanishi, o'zlari yashab turgan hududlarni himoyalashda foydalanilgan harbiy anjomlar va qurol-yarog'lar haqida, hamda buyuk ajdodlarimiz bo'lmish Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bekka tegishli bo'lgan eksponat va ma'lumotga ega bo'ldilar.

Muzeyga kirishda qad ko'targan, el yurtimizning sodiq farzandi timsolini aks ettirgan "Vatanga qasamyod" haykali ham hechkimni befarq qoldirmadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Davlat muzeyiga ekskursiya talaba-yoshlarning Vatanga bo'lgan muhabbati,

sadoqati, tariximizga bo'lgan hurmati va tushunchasini oshirishda yana bir qadam bo'ldi.

